Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni jadal rivojlantirish davrida ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik jihatdan yangilash, yuqori texnologiyali qayta ishlash yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyot tarmoqlari



uchun raqobatbardosh muhitni shakllantirish, ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish, eksport tarkibi hamda geografiyasini diversifikatsiya qilish, shuningdek, hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar faollashdi. Shu bilan birga, davlatimizda erkin bozor mexanizmlarini joriy etish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egalladi. Bu holat mulk daxlsizligi va iqtisodiy munosabatlardagi adolat tamoyilini belgilab, demokratik islohotlarni yanada rivojlantirdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlarda qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini raqamlashtirish jarayonlari bo'yicha bir qator yirik tadqiqotlar olib borilgan. OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Tax Administration 3.0" konsepsiyasida soliq organlarini ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvga o'tkazish, ma'lumotlar boshqaruvi, ularning sifati va kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish muhim yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tilgan. Bu yondashuv soliq nazoratini samarali tashkil etishda real vaqt rejimida monitoring va avtomatik audit imkoniyatlarini kengaytiradi.

Rossiya va MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda esa bosqichma-bosqich avtomatlashtirish va elektron hujjat aylanishi asosida soliq tushumlarini oshirish, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish hamda soliq to'lovchilarga qulay sharoit yaratish bo'yicha tajriba to'plangan. A.A. Filipovich o'z tadqiqotida 2015–2025 yillarda olib borilayotgan raqamli transformatsiyalar soliq boshqaruvining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qilayotganini ta'kidlaydi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan "VAT in the Digital Age" tashabbusi esa soliq ma'murchiligini raqamlashtirishning ilg'or modeli sifatida ko'rilmogda. Unda elektron hisob-faktura joriy etilishi, transaksiyalarni real vaqt rejimida soliq organlariga yetkazib berish, platforma iqtisodiyoti subyektlari uchun yagona hisobot mexanizmlarini joriy qilish va soliq to'lovchilarning yagona ro'yxatdan o'tishini ta'minlash kabi choralar belgilangan. Bu orqali soliq jarayonlari soddalashtiriladi, shaffoflik oshiriladi va firibgarliklarning oldi olinadi.

Elektron hisob-fakturalar va ularning real vaqt rejimida almashinuvi bo'yicha C. Kotsogiannis olib borgan tadqiqotlarda e-invoicing soliqqa rioya qilish darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkinligi isbotlangan. Bu yondashuv soliq ma'muriyati uchun transaksiyalarni tezkor tahlil qilish va buzilishlarni erta aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, Angelos Alexopoulos va hamkorlarining tarmoqqa asoslangan mashinaviy o'rganish yondashuvi Bulgariyada qo'llanilgan va u firibgarliklarni 50 foizdan ortiq aniqlash imkonini bergan. Bu tadqiqot soliq ma'muriyati tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali nazorat samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini raqamlashtirish jarayonlariga oid ma'lumotlar davlat soliq qo'mitasi hisobotlari, xalqaro tashkilotlar nashrlari hamda amaliy tajriba asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, statistik usullar va kontent tahlili yordamida o'rganilib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qo'shilgan qiymat solig'i umumdavlat soliq turi bo'lib, ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratilgan qo'shilgan qiymatning bir qismini davlat budjetiga olish shaklidir. U tovar va xizmatlardan olinadigan bilvosita (egri) soliqlar tarkibiga kiradi. Birinchi marta fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954-yilda taklif etilgan bo'lib, 1960-yilda Koddivuar Respublikasida soliq tizimiga kiritilgan. O'zbekistonda esa 1992-yildan boshlab qo'llanila boshlandi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish va import qilish aylanmasi QQS solinadigan obyekt hisoblanadi. Sotish bo'yicha QQSga tortiladigan aylanma sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati asosida narxlar va tariflar, aksiz solig'i inobatga olingan holda belgilanadi. QQSga tortiladigan aylanma mablag'i soliq obyektining turiga qarab maxsus usulda aniqlanadi. Masalan, ishlab chiqarilgan tovarlarning yuklab jo'natiladigan qismining qiymati, amalga oshirilgan qurilish, ta'mirlash, konstruktorlik, texnologik, qayta ta'mirlash va boshqa shunga o'xshash ishlarning qiymati QQSga tortiladi. Xizmatlar ko'rsatilganda esa transport vositalari yordamida bajarilgan ishlar qiymati, ijara, vositachilik haqi, infratuzilma, reklama va boshqa xizmatlar qiymati shu soliq obyektiga kiradi. Aksiz to'lanadigan tovarlarni QQSga tortishda uning obyektiga jo'natilgan aylanmaga aksiz solig'ining qiymati qo'shilgan holda aniqlanadi.

Hozirgi kunda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foiz miqdorida belgilangan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida amal qilgan qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari¹

t/r	Yillar	Stavka %	asoslar
1	1992	30	Buudjet parametrlari to'g'risidagi Prezident qarorlari
2	1996	17	Buudjet parametrlari to'g'risidagi Prezident qarorlari
3	1997	18	Buudjet parametrlari to'g'risidagi Prezident qarorlari
4	1999	20/15/0	Buudjet parametrlari to'g'risidagi Prezident qarorlari
5	2000	20/0	Buudjet parametrlari to'g'risidagi Prezident qarorlari
6	2019 (1-oktyabrdan)	15/0	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.09.2019 yildagi PF-5837-son
7	2023	12	O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 258-moddasi

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida bir qancha xulosalar chiqarish mumkin. Jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini doimiy kamaytirishga harakat qilingan va soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash uchun turli usullardan foydalanilgan.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "2023-yil 1-yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 15 foizdan 12 foizga pasaytirish hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida yiliga kamida 14 trillion so'm mablag' qoladi. Lekin biznes muhitini yaxshilash uchun faqat soliqni kamaytirishning o'zi yetarli emas", — deb ta'kidlab o'tilgan. Bilvosita turdagi bu soliq budjet tushumlari orasida juda katta qiyosiy salmoqqa ega. Yuqoridagi raqamlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda katta rol o'ynamoqda. QQS savdoda soliqqa tortishning muvaffaqiyatli chorasi sifatida tan olinib kelmoqda. Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari tasdiqlanganligi munosabati bilan Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan yangicha mexanizm va imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, soliq tekshiruvlari o'tkazishda ushbu toifalarga muvofiq monitoring tartibi soddalashtirildi. Eng kam belgilangan me'yor mikrofirmalarga, shuningdek, QQS to'lovchilariga ham tatbiq etildi. Mahsulotlar, ish va xizmatlar realizatsiyasi uchun 1 milliard so'm etib belgilangan hajm aylanmadan olinadigan soliq rejimining maksimal miqdorini belgilaydi.

2023-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik subyektlariga quyidagicha imkoniyatlar yaratildi:

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan bir yilda bir marotaba o'rta tadbirkorlik subyektlariga mol-mulkni sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan oshmagan qismi qoplab beriladi.

Jami daromadi 10 milliard so'mdan kam bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun davlat xaridlarida 20 foizlik kvota joriy etiladi va ushbu xaridlar doirasida budjet buyurtmachilari bilan tuziladigan shartnomalarda 50 foiz miqdorida oldindan to'lov amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Bunda, soliq organlari tomonidan jami daromadi 10 milliard so'mdan oshgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantirilib, maxsus axborot portali orqali ma'lumot almashinuvi ta'minlanmoqda.

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligiga oid quyidagilar bekor qilindi:

Davlat xaridlarida eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolarida ishtirokchilar takliflarini baholashda qo'shilgan qiymat solig'i summasi inobatga olinmaydi.

Yuqori qo'shilgan qiymatli mis mahsulotlarini eksport qiluvchi korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish va ularni tashqi bozorga sotish bilan bog'liq xarajatlarini eksport qiymatining 6 foizigacha qoplash tartibi bekor qilindi.

Shuningdek, ishonchli soliq to'lovchilarni inson omilisiz aniqlash tizimi joriy etilmoqda. Dori vositalarining davlat sog'liqni saqlash muassasalariga bepul berilishi yoki amal qilish muddati qisqaligi sababli narxi pasaytirilgan qiymat bo'yicha realizatsiya qilinishi iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan xarajatlar (zararlar) deb e'tirof etilmoqda va mos ravishda foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanishi belgilandi.

2023-yil 1-maydan boshlab tadbirkorlik subyektlariga avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor stansiyalari va avtomobillarga gaz quyish stansiyalarida elektron o'lchash uskunolari hamda onlayn videokameralarni o'rnatish va ularni soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilish majburiy hisoblanadi. Shuningdek, paxta xomashyosi, g'alla yoki sholini qabul qilish va hisobini yuritish bo'yicha axborot tizimlari operatorlari ham o'z tizimlarini soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilishlari majburiy deb belgilandi. Barchaga ma'lumki, inson omilisiz elektron tizim yashirin iqtisodiyotning, qolaversa, korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

1 Muallif tomonidan tuzilgan



Bugungi kunda zamonaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni jadal ortib bormoqda. O'tgan yilning o'zida soliq to'lovchilar tomonidan shaxsiy kabinetdan foydalanishlar soni 40,5 milliontani (2020-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p), yuborilgan elektron hisobvara-fakturalar soni 33,9 milliontani (2020-yilga nisbatan 1,6 baravar ko'p), onlayn nazorat-kassa mashinalari orqali ro'yxatga olingan cheklar soni 417,4 milliontani (2020-yilga nisbatan 4 baravar ko'p) tashkil etdi. Ma'lumotlarni qayta ishlash markazida giperkonvergent texnologiya joriy etildi va u axborot tizimlariga yuklama hajmini serverlararo taqsimlab, ularning uzluksiz faoliyatini ta'minlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son qarori bilan soliq to'lovchilarni QQS to'lovchisi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazishni inson omili ta'siri cheklangan yangi tartibi joriy etildi. Bu tartibning asosiy maqsadi — insofli soliq to'lovchilarni qo'llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanadigan, qalbaki yoki ko'zbo'yamachilik bitimlarini amalga oshirishni rejalashtirgan soliq to'lovchilar bilan moliyaviy operatsiyalarning oldini olishdan iborat.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'yicha to'lovlar soliq turi bo'yicha hisobot taqdim etilgan muddatdan so'ng 3 kun ichida davlat budjetiga o'tkaziladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun QQS summasini to'lashning boshqa muddatlarini belgilashi mumkin. Import qilinayotgan tovarlar bo'yicha QQS summasi bojxonada rasmiylashtirilishidan oldin yoki rasmiylashtirish paytida to'lanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomasi soliq to'lovchi tomonidan yuboriladigan arizaga muvofiq beriladi. Soliq to'lovchi ariza berishda Soliq kodeksining 461-moddasiga muvofiq majburiy tartibni yoki 462-moddasiga muvofiq ixtiyoriy tartibni tanlashi mumkin. Ariza yuborilgandan so'ng, Vazirlar Mahkamasining 595-son qaroriga muvofiq avtomat tarzda tekshiriladigan mezonlar asosida soliq to'lovchining soliq xavfi darajasi aniqlanadi. Agar soliq to'lovchining soliq xavfi yuqori bo'lsa, QQS guvohnomasi uchun ariza rad etiladi va bu haqda qaror shakllantirilib, soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Agar soliq to'lovchining soliq xavfi o'rta yoki past bo'lsa, ariza o'rganishga olinadi va 7 ish kuni davomida soliq to'lovchining yuridik manzilida mavjudligi hamda tovar nomutanosibli holatlari tekshiriladi. Soliq inspektori tomonidan amalga oshirilgan har bir o'rganish natijalari yuklanadi. Kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda, soliq to'lovchiga QQS guvohnomasi beriladi.

Agar soliq to'lovchi soliq organlari ma'lumotlar bazasiga ko'ra majburiy tartibda QQS to'lovchisi bo'lsa, "majburiy tartibda" ko'rinishidagi ariza hech qanday tekshiruvlarsiz qabul qilinadi va QQS guvohnomasi beriladi. Yuborilgan ariza egasining tovar nomutanosibli 7 ish kuni davomida o'rganiladi va agar kamchiliklar aniqlansa, soliq inspektori xulosasiga asosan QQS guvohnomasi vaqtincha to'xtatib turiladi (1-rasm).



1-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomasi berish tartibi²

2 Rasm muallif tomonidan tuzilgan



Yuqoridagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, soliq to'lovchilarga qo'shilgan qiymat solig'i maxsus guvohnomasi murakkab tizim asosida beriladi. Qo'shilgan qiymat solig'i maxsus guvohnomasi soliq to'lovchining o'ziga va u bilan birga ishlaydigan kontragentga, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisiga sotib olingan tovar va xizmatlar uchun to'langan qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish imkoniyatini beradi. Ushbu tartib O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 266-moddasi bilan tartibga solinadi. Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomasini olganlarning dinamik jadvali ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 266¹-moddasida qo'shilgan qiymat solig'i summalarini hisobga olishning ayrim o'ziga xos xususiyatlari belgilangan. Unga ko'ra, guvohnomasi amal qilishini to'xtatib turilgan, tugatilgan yoki bekor qilingan soliq to'lovchi tomonidan haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasi hisobga olinmaydi. Bunday holatlarda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasi uning xaridorlari tomonidan ham hisobga olinmaydi.

Agar guvohnomaning amal qilishi to'xtatib turilgan bo'lsa va bu sababli tovarlar (xizmatlar) bo'yicha to'langan (to'lanishi lozim bo'lgan) soliq summasi hisobga olinmagan bo'lsa, guvohnoma amal qilishi qayta tiklanganidan so'ng, u to'xtatib turilgan sanadan boshlab soliq to'lovchi va uning xaridorlarida qayta hisobga olinadi (tuzatiladi)³.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish (olib kirish) chog'ida soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq summasi ushbu Kodeksning 266-moddasiga muvofiq quyidagi hollarda hisobga olinmaydi:

1. realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalari ushbu bo'limga muvofiq soliq solishdan ozod etilgan tovarlarni ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun mo'ljallangan asosiy vositalar, ko'chmas mulk obyektlari va nomoddiy aktivlar sotib olinganda (olib kirilganda);

2. tovarlar (xizmatlar) ushbu qismning 1-bandida ko'rsatilgan asosiy vositalarni, ko'chmas mulk obyektlarini qurish, modernizatsiya qilish, rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va ta'mirlash uchun sotib olinganda;

3. realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalari soliqdan ozod etilgan tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish (xizmatlar ko'rsatish) uchun sotib olinganda;

4. tovarlar (xizmatlar) soliq to'lovchi bo'lmagan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan sotib olinganda;

5. vakillik xarajatlari;

6. tovarlar (xizmatlar) bepul olinganda, bundan oluvchi ular bo'yicha soliq to'lagan hollar mustasno;

6. soliq to'lovchining shaxsiy ehtiyojlari uchun foydalanishga mo'ljallangan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 317-moddasiga muvofiq foyda solig'ini hisoblab chiqarishda xarajatlar chegirib tashlanmaydigan tovarlar (xizmatlar) sotib olinganda⁴.

Agar soliq to'lovchi soliq solinadigan va soliq solishdan ozod etiladigan aylanmalarni amalga oshirsa, soliq solinadigan aylanmaga to'g'ri keladigan soliq summasi hisobga olish uchun qabul qilinadi.

Hisobga o'tkazilishi lozim bo'lgan soliq summasi soliq to'lovchining tanloviga ko'ra alohida-alohida usulda va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi.

Alohida-alohida usul bo'yicha soliq to'lovchi soliq solinadigan va soliq solishdan ozod etilgan aylanmalar uchun foydalaniladigan, olingan tovarlarning (xizmatlarning), shuningdek ular bo'yicha to'langan soliq summalarining alohida hisobini yuritadi. Bunda alohida hisobni yuritish imkoni bo'lmagan umumiy xarajatlar bo'yicha xarajatlarni ajratish mutanosib usulda amalga oshiriladi.

Mutanosib usul bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan hisobga olish uchun qabul qilinadigan soliq summasi soliq solinadigan aylanma summasining, tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish (soliqni hisobga olmagan holda) bo'yicha aylanmaning umumiy summasidagi joriy kalendar yil ichida o'sib boruvchi yakun bilan aniqlanadigan solishtirma miqdoridan kelib chiqib belgilanadi.⁵

Bunda soliq to'lovchilar va ularning kontragentlari faqat QQS to'lovchi guvohnomasi faol bo'lgan holatda QQS summasini hisobga olishga haqli bo'ladi. Arizalarni ko'rib chiqish muddati 7 kun qilib belgilangan, agar ariza ushbu muddatda ko'rib chiqilmasa, guvohnoma avtomatik ravishda beriladi. QQS to'lovchilarga berilgan faol holatdagi guvohnomalar har kuni avtomatik ravishda 18 ta mezon (soliq qarzi, rahbar shaxsi, hisobot taqdim etishi, manzilda joylashganligi va boshqalar) bo'yicha tahlil qilinadi. Agar soliq to'lovchi hech bo'lmaganda 1 ta mezon bo'yicha soliq xavfining yuqori darajasiga tushsa, guvohnomaning amal qilishi avtomatik ravishda vaqtincha to'xtatiladi. Shuningdek, soliq to'lovchi kamchilikni bartaraf etgan taqdirda, dastur guvohnomaning amal qilishini avtomatik ravishda tiklaydi.

Qayd etish joizki, QQS to'lovchisi guvohnomasining amal qilishi vaqtincha to'xtatilgan davrda soliq to'lovchi va uning kontragentlari QQS summasini hisobga ololmaydi. Guvohnomaning amal qilishi asosan quyidagi hollarda vaqtincha to'xtatiladi:

3 O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi O'RQ 136 qonun 27.12.2019

4 O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi O'RQ 136 qonun 27.12.2019 y

5 Ўзбекистон Республикаси солиқ кодекси ЎПҚ 136 қонун 27.12.2019 й



- soliq qarzi mavjud bo'lganda (ikki oydan ortiq muddat davomida QQS bo'yicha to'lanmagan soliq qarzi mavjud bo'lsa);

- uch oydan ortiq muddat davomida moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmaganda (mavsumiy faoliyatga ega shaxslar bundan mustasno);

- soliq xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar toifasiga tushganda.

Bunday hollarda soliq to'lovchi tomonidan soliq xavfi yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan holatlar va kamchiliklar bartaraf etilgach, QQS guvohnomasi qayta beriladi va faollashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son Farmoniga asosan, soliq xavfining yuqori darajasiga ega soliq to'lovchilarning QQS bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasining amal qilishi, bu haqda soliq organlari tomonidan besh ish kuni oldin xabarnoma yuborilgandan so'ng hamda ushbu muddatda kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda, to'xtatib turilishi belgilandi.

Subyektlar tomonidan QQS to'lovchisi sifatida maxsus ro'yxatdan o'tish uchun ariza taqdim etish va ushbu arizani soliq organlarida ko'rib chiqish tartibi quyidagicha:

Soliq to'lovchi ixtiyoriy yoki majburiy tartibda tanlagan holda ariza taqdim etishi mumkin. Soliq kodeksining 237 hamda 461-moddalariga asosan, QQS to'lash majburiyati yuzaga kelgan korxonalar majburiy tartibni tanlagan holda ariza topshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son Farmoni bilan 2022-yil 1-iyuldan boshlab majburiy ravishda QQS to'lovchisi sifatida e'tirof etiladigan tadbirkorlik subyektlariga QQS bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnomani soliq xavfi darajasiga aniqlik kiritmasdan turib avtomatik tarzda berish tartibi joriy etildi.

Ushbu farmonga asosan, majburiy tartibda topshirilgan arizalar bo'yicha 1 daqiqa ichida avtomatik ravishda QQS guvohnomasi rasmiylashtiriladi. QQS guvohnomasi berilgach, dastur avtomatlashtirilgan tahlil tizimida soliq xavfi mezonlari bo'yicha tekshiruv o'tkazadi. Agar soliq xavfining yuqori mezonlari aniqlansa, 5 ish kuni ichida aniqlangan kamchilik sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi.

Ushbu jarayonlar inson omili cheklangan holda to'liq avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshiriladi. QQS to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tmoqchi bo'lgan korxonalar ixtiyoriy tartibni tanlagan holda ariza taqdim etadi va bunda ular keyingi oyning birinchi sanasidan QQS to'lashga o'tishi mumkin bo'ladi (2-jadval).

2-jadval. Qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomalarining berilganligi dinamikasi (mlrd.sum)⁶


№	Xudud nomi	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
x	Respublika bo'yicha	12 775	85 481	113 566	143 034	173 417	190 272	201 023
1	QQR	855	5 468	6 418	7 472	9 033	9 363	9 922
2	Andijon v	1 116	5 836	7 770	9 232	11 362	11 205	12 515
3	Buxoro v	664	6 444	8 456	10 243	11 824	13 029	13 137
4	Jizzax v	402	3 889	5 103	6 088	7 456	7 635	7 736
5	Qashqadaryo v	685	7 139	10 665	13 711	15 485	16 360	17 287
6	Navoiy v	429	2 754	3 714	4 927	5 966	6 550	6 707
7	Namangan v	594	4 756	6 383	8 162	9 703	10 152	10 607
8	Samarqand v	1 216	6 752	8 733	10 968	13 225	14 637	15 370
9	Surxondaryo v	776	4 445	6 327	7 659	9 060	9 380	10 101
10	Sirdaryo v	245	3 060	3 951	4 841	5 858	6 153	6 505
11	Toshkent v	889	7 043	9 237	12 187	15 161	16 411	18 476

6 Muallif tomonidan tuzilgan



12	Farg'ona v	936	6 266	8 495	10 488	13 224	14 530	15 367
13	Xorazm v	707	4 199	5 134	6 661	8 036	8 595	9 109
14	Toshkent sh	3 261	16 474	22 168	29 347	37 153	44 197	47 345
15	MRI	0	956	1 012	1 048	871	2 075	839

2-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, yetti yil mobaynida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari soni 12 775 tadan 201 023 tagacha ko'paygan. Bunday ko'p sonli guvohnomalarni berish juda murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni raqamlashtirilgan tizimlar orqali amalga oshirish soliq to'lovchilar hamda soliq organi xodimlariga tezkor, shaffof va samarali ishlash imkoniyatini yaratib beradi (2-rasm).



2-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarining faol guvohnomalarining dinamikasi⁷

Qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomasi soliq to'lovchilar uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Soliq to'lovchi soliq xavfi guruhlaridan biriga kiritilgan taqdirda, soliq organi arizani ko'rib chiqib, undagi ma'lumotlarni tekshirish va tahlil qilish yakunlangandan so'ng ikki ish kuni ichida quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

soliq xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilar bo'yicha — maxsus ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida;

soliq xavfi o'rta bo'lgan soliq to'lovchilar bo'yicha — keyingi o'n ikki oy ichida soliq nazoratining tekshiruv tadbirlarini o'tkazish sharti bilan maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida;

soliq xavfi past bo'lgan soliq to'lovchilar bo'yicha — maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq organlarida maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror soliq organi rahbari yoki uning o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi.

Agar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq organlarida maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 595-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 12-bandida belgilangan muddatlarda taqdim etilgan bo'lsa hamda tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish summasi Soliq kodeksining 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida belgilangan miqdordan oshgan bo'lsa, soliq to'lovchi ariza taqdim etilgan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan maxsus ro'yxatdan o'tkazilgan deb hisoblanadi.

Bunda, agar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini maxsus ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza Vazirlar Mahkamasining 595-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 10-bandida belgilangan muddatlarda taqdim etilgan bo'lsa, Soliq kodeksining 461-moddasiga muvofiq aylanmadan olinadigan soliqni to'lash tatbiq etilmaydigan soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash majburiyati yuzaga kelgan kundan maxsus ro'yxatdan o'tkazilgan deb hisoblanadi.

Soliq xavfi o'rta bo'lgan soliq to'lovchiga nisbatan soliq organi maxsus ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda soliq nazorati tadbirlarini (ko'zdan kechirish, so'rov, kameral va

⁷ Rasm muallif tomonidan tuzilgan



sayyor soliq tekshiruvlari, xodimlarning hisobotdagi va haqiqiy soniga muvofiqligini nazorat qilish) amalga oshiradi.

Maxsus ro'yxatdan o'tkazish yoki uni rad etish to'g'risidagi asoslantirilgan qarorning bir nusxasi u qabul qilingan kundan boshlab bir ish kuni ichida soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Maxsus ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan soliq to'lovchi rad etishga sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etgandan so'ng yangidan ariza berishga yoxud rad etish to'g'risidagi qaror ustidan yuqori turuvchi soliq organiga yoki sudga shikoyat qilishga haqli⁸.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, soliq ma'murchiligi jarayonlarini raqamlashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyati an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroqdir.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritishda soliq va ma'muriy javobgarlikni qisqartirish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va ularni soddalashtirish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Shu bilan birga, soliqqa tortish tizimi va tamoyillarini, soliq to'lovlarining amalga oshirilishini hisobga olish mexanizmini imkon qadar soddalashtirish xo'jalik yurituvchi subyektlarda to'g'ri ishlash tartibining shakllanishiga olib keladi va soliqlardan qochish holatlari kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda O'RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. Gadoev E.F. va b. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i. – Toshkent: "NORMA", 2011. – 327 b.;
3. N.K.Muxammadov "Ma'lumotlarni elektron hujjat aylanish tizimida shakllantirish orqali soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi dissertatsiya ishi. Toshkent 2024 – yil, 156 bet.
4. Urmonov J.J. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (dSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 2018. -65 b.
5. Isaev F.I. "Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish". i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2019 yil. 116 bet.
6. OECD. Tax Administration 3.0: Digital Transformation of Tax Administration. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 145 p.
7. A.A. Filipovich. Cifrovaya transformatsiya nalogovogo administrirovaniya v Rossii. – Moskva: Finansy i statistika, 2019. – 214 s.
8. European Commission. VAT in the Digital Age (ViDA). – Brussels: European Union Official Report, 2022. – 187 p.
9. C. Kotsogiannis. E-invoicing, Tax Audits and VAT Compliance. – Amsterdam: Elsevier, 2024. – 132 p.
10. A. Alexopoulos, K. Chrysafiadi, D. Sotiropoulos. Network and Machine Learning Approach to Detect VAT Fraud. – Berlin: Springer, 2021. – 256 p.

8 Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 22 сентябрдаги 595-сон қарорига 1-ИЛОВА Қўшилган қиймат солиғ'и тўловчиларини солиқ органларида қўшилган қиймат солиғ'и бўйича махсус рўйхатдан ўтказиш тартиби тўғ'рисида НИЗОМ



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>